



THE ROLE OF WOMEN SCIENTISTS' SCIENTIFIC POTENTIAL IN THE INTELLECTUAL DEVELOPMENT OF SOCIETY

Zilola Gapporova

Doctoral Student, Department of Social Sciences

Namangan State Technical University

E-mail: zilola06071999@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: woman scientist, intellectual development, science, education, innovation, gender equality, legal framework, historical heritage, state policy.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the role and significance of women scholars in the intellectual development of society. The study considers the realization of women's scientific potential as an important social factor in the context of globalization, the knowledge economy, science, and innovative development. The article examines the principles of gender equality promoted by international organizations, particularly the UN and UNESCO, women's participation in science and enlightenment in historical sources, as well as legal and institutional reforms aimed at supporting women in science and education in the Republic of Uzbekistan. The results of the study show that women scholars are important actors in enhancing society's intellectual potential, developing innovative thinking, and enriching the scientific environment. The article concludes with recommendations for improving the support system for the scientific activities of women scholars.

JAMIYAT INTELLEKTUAL TARAQQIYOTIDA OLIMA AYOLLAR ILMIY SALOHİYATINING O'RNI

Zilola G'apporova

Ijtimoiy fanlar kafedrasida doktoranti

Namangan davlat texnika universiteti

E-mail: zilola06071999@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: olim ayol, intellektual taraqqiyot, ilm-fan, taʼlim, innovatsiya, gender tenglik, huquqiy baza, tarixiy meros, davlat siyosati.

Annotatsiya: Mazkur maqolada olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi oʻrni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda globallashuv, bilimlar iqtisodiyoti, ilm-fan va innovatsion rivojlanish sharoitida xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini roʻyobga chiqarish masalasi muhim ijtimoiy omil sifatida koʻrib chiqilgan. Maqolada xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va YUNESKO tomonidan ilgari surilgan gender tenglik tamoyillari, tarixiy manbalarda ayollarning ilm-maʼrifatdagi ishtiroki, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasida xotin-qizlarni ilm-fan va taʼlim sohasida qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy hamda institutsional islohotlar tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, olim ayollar jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirish, innovatsion tafakkurni shakllantirish va ilmiy muhitni boyitishda muhim subyekt sifatida namoyon boʻladi. Maqola yakunida olim ayollar ilmiy faoliyatini qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan.

**РОЛЬ НАУЧНОГО ПОТЕНЦИАЛА ЖЕНЩИН-УЧЁНЫХ В
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА**

Зилола Гаппорова

Докторант кафедры социальных наук

Наманганского государственного технического университета

E-mail: zilola06071999@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: женщина-учёный, интеллектуальное развитие, наука, образование, инновации, гендерное равенство, правовая база, историческое наследие, государственная политика.

Аннотация: В статье научно-теоретически анализируются роль и значение женщин-учёных в интеллектуальном развитии общества. В исследовании вопрос реализации научного потенциала женщин рассматривается как важный социальный фактор в условиях глобализации, экономики знаний, развития науки и инноваций. В статье освещаются принципы гендерного равенства, выдвигаемые международными организациями, в частности ООН и ЮНЕСКО, участие женщин в науке и просвещении в исторических источниках, а

также правовые и институциональные реформы, направленные на поддержку женщин в сфере науки и образования в Республике Узбекистан. По результатам исследования установлено, что женщины-учёные выступают важными субъектами повышения интеллектуального потенциала общества, формирования инновационного мышления и обогащения научной среды. В заключении предложены рекомендации по дальнейшему совершенствованию системы поддержки научной деятельности женщин-учёных.

Kirish. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va bilimlar iqtisodiyoti sharoitida jamiyat taraqqiyoti tobora ko‘proq ilm-fan, innovatsion tafakkur va intellektual resurslar bilan belgilanmoqda. Zamonaviy dunyoda davlatlarning raqobatbardoshligi tabiiy boyliklar yoki ishlab chiqarish hajmi bilangina emas, balki inson kapitali, ilmiy salohiyat, ta‘lim sifati va innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tatbiq eta olish darajasi bilan ham o‘lchanadi. Shu bois ilm-fan va ta‘lim sohasida barcha ijtimoiy qatlamlarning, xususan, xotin-qizlarning faol ishtirokini ta‘minlash jamiyat barqaror rivojlanishining muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur jarayonda olim ayollarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki olim ayol nafaqat ilmiy bilim ishlab chiqaruvchi subyekti, balki jamiyatda ma‘rifat, innovatsion fikrlash, tarbiya, ijtimoiy mas‘uliyat va intellektual madaniyatni rivojlantiruvchi muhim ijtimoiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Ayollarning ilm-fan sohasidagi ishtiroki ilmiy muhitda fikrlar xilmaxilligini ta‘minlaydi, yangi tadqiqot yo‘nalishlarining shakllanishiga yordam beradi hamda ijtimoiy muammolarga nisbatan kengroq va insonparvar yondashuvlarni yuzaga chiqaradi.

Xalqaro miqyosda olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi ilm-fanning sifat jihatdan rivojlanishiga, innovatsion yechimlarning ko‘payishiga va ilmiy qarashlarning boyishiga xizmat qiladi. Shu sababli BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar ilm-fan sohasida gender tenglikni ta‘minlashni barqaror rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etmoqda[1]. Demak, olim ayollar masalasi faqat gender tenglik muammosi emas, balki jamiyatning intellektual taraqqiyoti, ilmiy salohiyati va innovatsion kelajagi bilan bevosita bog‘liq masaladir.

Xususan, YUNESKO tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko‘ra, ilm-fanning to‘liq salohiyati faqat bilim va iste‘dodlarning barcha manbalaridan teng foydalanilgandagina yuzaga chiqadi. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish ham ilm-fan sohasida ayollar ishtirokining yetarli emasligini global taraqqiyot yo‘lidagi dolzarb muammolardan biri sifatida baholab, xotin-qizlarning ilmiy tadqiqotlarga keng jalb etilishi ilm-fanni yangi qarashlar va innovatsion

yondashuvlar bilan boyitishini ta'kidlaydi. Bu esa ayollarning ilm-fandagi faolligi jamiyatning intellektual raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatadi.

O'zbekiston tajribasida ham xotin-qizlarning ta'lim olishi, ilm-fan bilan shug'ullanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va institutsional mexanizmlar ayollarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan olim ayol fenomenini tarixiy, huquqiy, ijtimoiy va ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Mazkur maqolaning asosiy maqsadi olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, O'zbekiston sharoitida ularning ilm-fan va ta'lim sohasidagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashning huquqiy hamda institutsional asoslarini yoritishdan iborat.

Metodologiya. Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-nazariy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va huquqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-nazariy tahlil metodi orqali olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati konseptual jihatdan yoritildi. Tarixiylik metodi yordamida ayollarning ilm-fan, ma'rifat va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va YUNESKO tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar O'zbekiston tajribasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi. Huquqiy tahlil metodi esa O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning ta'lim olishi, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi va jamiyat hayotida faol ishtirokini kafolatlovchi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishda qo'llanildi.

Shuningdek, maqolada tarixiy-ma'naviy merosga oid manbalar, jadid mutafakkirlarining ayollar ta'limiga doir qarashlari hamda zamonaviy davlat siyosatiga oid hujjatlar mazmunan tahlil qilindi. Bu esa olim ayol fenomenini faqat zamonaviy ijtimoiy jarayon sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot, ma'rifiy an'ana va huquqiy islohotlar bilan bog'liq holda yoritish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi o'rni bir necha muhim yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, ular ilmiy bilim yaratish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va innovatsion yondashuvlarni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etadi. Ikkinchidan, olim ayollar ta'lim tizimida yosh avlodning intellektual va ma'naviy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, ular jamiyatda gender tenglik, ijtimoiy adolat va ilmiy salohiyatni ro'yobga chiqarish g'oyalarining amaliy ifodachisi sifatida maydonga chiqadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ilm-fan sohasida ayollarning yetarli darajada ishtirok etmasligi jamiyatning umumiy intellektual salohiyatidan to'liq foydalanilmasligiga olib keladi. Aksincha, ayollarning ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinishi ilmiy muhitni boyitadi, tadqiqot yo'nalishlarini kengaytiradi va turli ijtimoiy muammolarga nisbatan kompleks yondashuvlarni shakllantiradi. Shu sababli xalqaro tashkilotlar ilm-fan sohasida gender tenglikni ta'minlash masalasini barqaror rivojlanishning muhim sharti sifatida baholaydi[1].

Tarixiy manbalar ham ayollarning ilm-ma'rifat va jamiyat taraqqiyotidagi ishtiroki qadimiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Xususan, Amir Temur davrida Saroymulxonimning davlat boshqaruvi, ilm-ma'rifat va bunyodkorlik sohasidagi faoliyati ayol zakovati va ijtimoiy faolligining yuksak namunasi hisoblanadi. Uning tashabbusi bilan bunyod etilgan madrasa o'z davrida nafaqat me'moriy obida, balki ilm-fan va ma'rifat markazi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Bu holat temuriylar davrida ayollarning ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy hayotdagi o'zni yuqori baholanganini ko'rsatadi[2].

Jadidchilik davrida ham ayollar ta'limi masalasi millat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda talqin etildi. Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiy asarlarida ayollarning ilm olishi oilaning mustahkamligi, farzand tarbiyasining yuksalishi va jamiyat ma'naviy muhitining sog'lomlashuvi bilan bevosita bog'liq deb qaraladi. Jadidlarning fikricha, ayolning savodli va ma'rifatli bo'lishi faqat shaxsiy kamolot emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun zarur shartdir. Bu qarashlar bugungi xotin-qizlar ta'limi va ilmiy faoliyatini rivojlantirish siyosati uchun tarixiy-ma'naviy asos vazifasini bajaradi[3].

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida, ayniqsa, so'nggi davrda xotin-qizlarning ta'lim olishi, kasbiy rivojlanishi va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida erkaklar va ayollarning teng huquqliligi kafolatlangan bo'lib, bu norma xotin-qizlarning ta'lim, mehnat, ilmiy va ijtimoiy faoliyat sohaslarida teng imkoniyatlarga ega bo'lishining asosiy huquqiy negizini tashkil etadi[6].

Shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ilmiy hayotidagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat hisoblanadi[4]. Mazkur qonun ayollarning ilm-fan sohasida teng imkoniyatlarga ega bo'lishi, ilmiy izlanishlarda qatnashishi va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun muhim asos yaratadi.

Bundan tashqari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda ta'lim olishda tenglik prinsipi mustahkamlangan bo'lib, bu ayollarning oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlariga keng jalb etilishiga imkon bermoqda[5]. Ilm-fan va ta'limga oid huquqiy hujjatlar

xotin-qizlarning ilmiy izlanishlar olib borishi, ilmiy loyihalarda ishtirok etishi va ilmiy darajalarga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilmoqda.

Qonunosti hujjatlari, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari esa xotin-qizlarni ilm-fan va ta'lim sohasida qo'llab-quvvatlashning amaliy mexanizmlarini belgilab berdi. Jumladan, 2023-yil 21-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 208-sonli farmoni xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy va ilmiy faolligini oshirishga qaratilgan muhim hujjatlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu farmon ijrosi doirasida Oila va xotin-qizlar qo'mitasi faoliyati takomillashtirildi, ayollarni ilm-fan, ta'lim va innovatsiyalar sohasiga keng jalb etish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi[6].

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, "Olima ayollar jamiyati"ning tashkil etilishi xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi muhim institutsional qadam bo'ldi. Mazkur jamiyat olim ayollarning ilmiy izlanishlarini muvofiqlashtirish, ularning innovatsion g'oyalarini rag'batlantirish, ilmiy loyihalarini amaliyotga joriy etish va yosh tadqiqotchi qizlarni ilmiy faoliyatga yo'naltirishga xizmat qilmoqda[2]. Bu esa olim ayollarning ilmiy hamjamiyatdagi mavqeyini mustahkamlash bilan birga, jamiyat intellektual taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Muhokama. Olim ayollarning jamiyat intellektual taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning ilmiy faoliyati bir nechta ijtimoiy vazifani bajaradi. Avvalo, olim ayollar ilmiy bilimlar ishlab chiqarish va ularni amaliyotga tatbiq etish orqali jamiyatning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadi. Bu jarayonda ayollarning ilm-fanga kirib kelishi ilmiy muhitda ijtimoiy tajriba, axloqiy mas'uliyat va insonparvarlik mezonlarining kuchayishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi jihatdan, olim ayollar ta'lim va tarbiya tizimida muhim rol o'ynaydi. Ular nafaqat ilmiy tadqiqotchi, balki pedagog, murabbiy, ilmiy rahbar va ma'naviy yetakchi sifatida ham faoliyat yuritadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan olim ayollar yosh avlodda ilmga qiziqish, mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Uchinchi jihatdan, olim ayollar faoliyati jamiyatda ijtimoiy stereotiplarni yengib o'tish, xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish va gender tenglik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki ilm-fanda muvaffaqiyatga erishgan ayollar yosh qizlar uchun ijobiy namuna vazifasini bajaradi. Bu esa ta'lim tizimida iqtidorli qizlarni ilmiy faoliyatga erta jalb etish zarurligini ko'rsatadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollarning ilm-ma'rifatdagi ishtiroki jamiyat ma'naviy taraqqiyoti bilan doimo bog'liq bo'lgan. Saroymulxonim faoliyati, jadidlarning ayollar

ta'limiga doir qarashlari va zamonaviy islohotlar o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bu bog'liqlik shundan iboratki, har bir davrda ayollarning ma'rifatli bo'lishi jamiyatning kelajagi, farzandlar tarbiyasi va millat intellektual salohiyati bilan bog'liq holda baholangan.

O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. Biroq ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar ham mavjud. Xususan, hududlarda faoliyat yuritayotgan yosh tadqiqotchi ayollarni ilmiy grantlar, xalqaro loyihalar va akademik almashinuv dasturlariga kengroq jalb etish zarur. Shuningdek, olim ayollar uchun mentorlik tizimi, ilmiy maslahat platformalari va ilmiy maktablar faoliyatini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, ilm-fan sohasida ayollarning ishtirokini faqat son jihatdan oshirish yetarli emas. Muhim masala — ularning ilmiy faoliyat sifati, ilmiy loyihalarda yetakchilik qilishi, xalqaro ilmiy hamkorlikda faol qatnashishi va innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Shu bois olim ayollar faoliyatini qo'llab-quvvatlash kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu yondashuv huquqiy kafolatlar, moddiy rag'bat, ilmiy infratuzilma, xalqaro hamkorlik va ijtimoiy e'tirofni o'z ichiga olishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar. Yuqoridagi tahlillar asosida olim ayollar ilmiy faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

birinchidan, xotin-qizlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tizimli monitoring qilish va ularning amaliy samaradorligini oshirish zarur;

ikkinchidan, olim ayollar uchun maxsus grantlar, stipendiyalar, ilmiy stajirovkalar va innovatsion loyihalar sonini ko'paytirish lozim;

uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli qizlarni ilm-fan yo'nalishlariga erta jalb etish bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq;

to'rtinchidan, olim ayollarning xalqaro ilmiy hamkorlikdagi ishtirokini kengaytirish, ularni xorijiy ilmiy markazlar va universitetlar bilan bog'lovchi akademik platformalarni rivojlantirish zarur;

beshinchidan, yosh tadqiqotchi ayollar uchun mentorlik, ilmiy rahbarlik va tajriba almashish tizimini kuchaytirish lozim;

oltinchidan, hududlarda faoliyat yuritayotgan olim ayollarni ilmiy konferensiyalar, innovatsion tanlovlar, startap loyihalar va grant dasturlariga kengroq jalb etish kerak;

yettinchidan, jamiyatda olim ayollar obrazini targ'ib qilish, ularning ilmiy yutuqlarini ommaviy axborot vositalari va ta'lim muassasalari orqali keng yoritish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, olim ayol jamiyat intellektual taraqqiyotining muhim ramzi va faol subyektidir. Uning ilm-fan, ta'lim, innovatsiya va ma'rifat rivojiga qo'shayotgan hissasi jamiyatning umumiy intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Ayollarning ilmiy faoliyatga keng jalb etilishi ilmiy tafakkur xilma-xilligini ta'minlaydi, innovatsion yechimlarni ko'paytiradi va yosh avlodda ilmga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ayollarning ilm-ma'rifatdagi ishtiroki millat taraqqiyoti, oilaviy tarbiya va jamiyat ma'naviy yuksalishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Saroymulxonim faoliyati, jadidlarning ayollar ta'limiga doir qarashlari va zamonaviy O'zbekiston islohotlari o'rtasida ma'naviy uzviylik mavjud. Bu esa ayollar ilmiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash masalasi tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistonda yaratilgan mustahkam huquqiy baza, davlat siyosati va institutsional mexanizmlar xotin-qizlarning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, gender tenglikka oid qonunlar, ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar, "Olim ayollar jamiyati" kabi tuzilmalarning faoliyati ayollarning ilmiy hayotdagi mavqeyini mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

Shu bois olim ayollarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash nafaqat gender tenglikni ta'minlash, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, intellektual salohiyatining yuksalishi va kelajak taraqqiyotini kafolatlovchi strategik omil hisoblanadi. Kelgusida bu boradagi ishlarni yanada tizimlashtirish, olim ayollar uchun ilmiy imkoniyatlarni kengaytirish va ularning xalqaro ilmiy maydondagi ishtirokini oshirish jamiyat intellektual taraqqiyotining muhim sharti bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. YUNESKO Bosh direktori Odre Azule murojaati. Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuni munosabati bilan. – URL: <http://nhrc.uz/oz/news/m12454> (murojaat sanasi: 2026.02.08).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Olim ayollar jamiyati faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida". – URL: <https://lex.uz/pdfs/6704824> (murojaat sanasi: 2026.02.08).
3. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent: Ma'naviyat, 1993. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.